

О'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI

Xoliqnazarov Ismoil Hamdamqul o'g'li

Ahrorova Madina Rahmatovna

O'zbekiston Finlandiya pedagogika insituti

Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti

Tel: +998 (50) 070 29 20

Annotatsiya: Bu maqolamni yozishdan asosiy maqsadim shuki mustaqil O'zbekistonimizning xalqaro munosabatlaridagi 1991-2024-yillar oralig'idagi Germaniya davlati bilan savdo aylanmalari va o'z navbatida diplomatik aloqalari haqida mufasssal malumot berib o'tishdan iboratdir. Har birimizga malumki dunyo davlatlari orasida hech biri mustaqil mamlakat yo'qki tashqi olamdan uzulgan holda o'zi mustaqil taraqqiyotning tepasiga chiqib boraolmagan. Maqolamizning keyingi qisimlarida Germaniya davlatining mustaqillikka erishganimizdan so'ng birinchilardan bo'lib do'stlik, birodarlik va tijoriy hamkorlik qo'lini cho'zganligi ikki davlat uchun o'z navbatida manfaatli bo'lgan shartnomalarning tuzilishi va hozirgi kundagi amaliy foydalari haqida gaplashib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Sovet, diplomatik, iqtisodiy, hamkor, mintaqa, Kapital, shartnoma, hamjamiyat, elchixona, ekisport, vakolatxona, palata, byuro, energetika, benefitsiar, ayribosh, sarmoya, Migratsiya, mobillik, Kansler, millat, vakil.

O'zbekiston va Germaniya davlatlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari 1991-yil O'zbekiston Sovet Ittifoqidan ajralib chiqqanidan so'ng o'rnatildi. Germaniya davlati 1991-yil 25-dekabr sanasida mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topganligini tan olishi va 1992-yil fevral oyida bu davlat bilan diplomatik aloqalarini o'rnatilganligini e'lon qilishi bilan boshlangan edi. Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik vazirining 1992-yil avgustdagi rasmiy tashrifi ikki mintaqa vakillari uchun dastlabki katta qadamlardan biri bo'ldi va aloqalarning rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Islom Abdug'aniyevich Karimovning 1993-yil aprel oyida Germaniyaga qilgan amaliy tashrifi chog'ida „Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishga ko'maklashish va ularni o'zaro himoyalash to'g'risida“ shartnoma imzolandi va iqtisodiy hamjamiyatni kengaytirish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning G'arbiy Yevropadagi dastlabki elchixonasi 1993-yilda Bonn shahrida ochildi. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'rtasidagi almashinuvlar dastlab sog'liqni saqlash, ta'lim almashinuvi, atrof-muhitni muhofaza qilish ko'rinishida qurilgan bo'lsa so'ngi

yillarda dolzarb ko'rinish kasb etmoqda jumladan aftamobillar ekisporti, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari, to'qimachilik, tog'-kon texnologiyalari almashinuvi va qayta tiklanadigan energitika aloqalarida ko'zda tashlanmoqda. 1993-yilda O'zbekistonning Toshkent shahrida Germaniyaning texnikaviy hamkorlik jamiyatining vakolatxonasi ochildi. 1994-yilda Germaniya savdo-sanoat palatalari birlashmasi Toshkentda Germaniya iqtisodiyoti vakili byurosi tashkil etildi va iyunida Toshkentda K. Adenauer jamg'armasining vakolatxonasi ochildi. Hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1995-yilning may oyida O'zbekiston-Germaniya doimiy ishchi guru tuzildi. 1995-yilda Shtutgart shahridagi Linden-muzeyda „O'zbekistan. Buyuk Ipak yo'li merosi“ mavzusida ochilgan ko'rgazma O'zbekiston — Germaniya hamkorligini rivojlantirishda sezilarli voqea bo'ldi. Germaniya davlati 1991-1996-yillar oralig'ida mamlakatimiz iqtisodiy hamkorimiz sifatida energetika, tog'-kon, to'qimachilik sanoatlarimizga katta -katta sarmoyalar kiritgan edi, kiyinchalik O'zbekiston respublikasi hududida joylashgan 1997-yilda Qashqadaryo viloyatida ishga tushirilgan Muborak gazni qayta ishlash zavodi Germaniya konsorsiumi tomonidan qurib bitkazilgan bo'lib hozirgi kunda bu zavod O'zbekistonning gaz qazib olish va eksportini asosini tashkil qilmoqda. Ikki davlatning sayi harakatlari o'laroq 1997-yildagi dunyo davlatlari orasida Germaniya O'zbekistonning jahon mamlakatlari ichida 4-eng katta hamkorlaridan biri, Yevropa davlatlari ichida esa 2-katta hamkori bo'lgan. Germaniya 2006-2016-yillar rivojlanayotgan mamlakatlarga ma'lum tovarlar uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga bojsiz kirish imkonini beruvchi Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP) dasturining benefitsiarining berilishi savdo va tijoratimizda olg'a siljishimiz uchun malum bir omillardan biri bo'lib xizmat qilib berdi. Bu dastur O'zbekistonning Germaniyaga tikuvchilik va to'qimachilik mahsulotlarining ekisportini sezilarli darajada oshirdi. Shunio ham aytib o'tishimiz kerakki 1991-2019-yillar davomida qilingan sayi harakatlarimiz natijasi bo'lib 2019-yilda bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ayriboshlash hajmi 900 yevrodan oshdi nemis kompaniyalari O'zbekistyon energetika sohasiga katta sarmoya kiritdi. Shu yillarga qadar mashinalar, transport vositalari va kimyoviy mahsulotlar eksport qiladi. Frankfurt shahrida 2019-yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo va sarmoyani rivojlantirish maqsadida savdo va sarmoyaviy ofisini ochdi. Ochilgan ofisdan ko'zlangan maqsad tadbirkorlarga Germaniyaga eksport qilish va nemis hamkorlari bilan ishlash uchun ma'lumot va ko'mak berish edi. Yurtimizda va butun dunyoda 2019-yilda boshlangan COVID keltirib chiqargan inqirozga qaramasdan ikki davlat o'rtasidagi birodarlik aloqalari davom etdi yil oxiriga kelib esa o'sish hajmi 4,4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilga kelib Germaniya Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlari safida O'zbekiston oltinchi yirik hamkorlaridan biri bo'lib qoldi. Hozirgi kunda Germaniya O'zbekistonning paxta, gaz va oltin kabi tabiiy

boyliklarini import qilishga hamda O'zbekistonga mashinasozlik, avtomobil ehtiyot qismlari va kimyo mahsulotlarini eksport qilishga asosiy e'tibor qaratgan O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo hamkorlaridan biridir. Germaniya TIV rahbari Annalena Berбок 2022-yil 31-2-noyabr sanalarida Samarqand shahriga qilgan tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev va bir qator vazirliklar bilan uchrashdi kiyingi loyihalar istiqbollari haqida kelishib olindi. 2024-yil 15-sentabr sanasida Olaf Shols "Migratsiya va mobillik sohasida har tomonlama sheriklik to'g'risida" davlatimiz rahbari bilan uchrashdi unda o'zaro sherikchilik munosabatlarida malakali ishchilar bir-biriga yetkazib berilishi va ularning istiqboli borasida kelishib olindi, Kansler Sholsning tushuntirishicha, migratsiya bo'yicha kelishuv "Germaniyaga zarur bo'lgan yuqori malakali ishchilarning kelishini" ta'minlaydi. hukumatlararo bitim imzolanganiga to'xtalib o'tdi. Bugungi kunda yurtimizda nemis sarmoyasi ishtirokidagi 200 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi so'nggi besh yil ichida 1,5 barobardan ortiqni tashkil qilmoqda. Iqtisodiyotimizdagi barqarorlik, davlatlarimiz o'rtasidagi iliq munosabatlar natijasida hozirda davlatimizda besh mingga yaqin nemis millatiga mansub millat vakillari yashab kelmoqda.

Xulosamizning so'ngida shuni aytishimiz mumkinki hech bir davlat tarixi davomida muqobil o'sish qudratiga ega emas. Dunyo davlatlari borki bu davlatlar orasida hamkorlik bor, bu xoh iqtisodiy sohada bo'lsin xoh siyosiy sohada. Biz imkoniyatimiz yetganiga qadar Germaniya-O'zbekiston davlatlarining 1991-2024-yillar davomida iqtisodiy va tijorat aloqalarini ochib berishga harakat qilar ekanmiz, bu ikki davlat orasidagi amaliy yordam abadiy do'stlik, hamkorlik va manfaatli kelishuvlar natijasini kutib qolamiz. Hozirgi kunda muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov davrida boshlangan iliq munosabatlar hozirgi kunga qadar davom etayotganidan, 2017-yildan buyon dunyo davlatlari bilan birgalikda Germaniya davlatiga ham yangicha iqtisodiy eshiklarning ochishga harakat qilayotganimizni, endilikda muqobil va qayta tiklanadigan energiya, avtomobilsozlik sohalaridan tashqari yangi davir oldimizga qo'yayotgan talablardan biri bu to'ristik imkoniyatlarni ham kengaytirishimiz kerak deb o'ylayman. Ko'rib turganimizdek manfaatli shartnomalarimiz endilikda faqtgina resurslarga bog'lanmasdan o'z tariximiz va kechmishimiz kabi yangi dunyo manfaatlar dunyosi yangiliklarini ham qabul qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2. „Шавкат Мирзиёев Германия канцлери билан видеоанжуман шаклида музокара ўтказди“. *Bugun.uz*. 2021-yil 21-iyulda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021 йил 12 март.
3. [file:///C:/Users/user/Downloads/Ziyodullayev+Doston+Tojiddin+o'g'li%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/Ziyodullayev+Doston+Tojiddin+o'g'li%20(2).pdf)
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/17/summit-germany/>
5. <https://daryo.uz/2024/09/16/ozbekiston-biz-uchun-juda-muhim-hamkor-germaniya-kansleri>
6. <https://gov.uz/oz/news/view/24537>
7. <https://taschkent.diplo.de/uz-uz/themen/-/2649074>